

**R.RASULOV, Q.MO'YDINOV**

**NUTQ MADANIYATI VA  
NOTIQLIK SAN'ATI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**R.RASULOV, Q.MO'YDINOV**

**NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN'ATI**  
(o'quv qo'llanma)

Ta'lim yo'nalishi: 60111400 – O'zbek tili va adabiyoti

Toshkent – 2025

UO·K 808.5;37.0

KBK 8.12-8;74

R-31

**Rasulov R., Mo‘yidinov Q. /Nutq madaniyati va notiqlik san‘ati/**  
o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Mhamroh media”, 2025. – 232 b.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada nutq madaniyati va notiqlik san‘ati, adabiy til va adabiy me‘yor, til va nutq, nutq odobi, nutq texnikasi, nutqning kommunikativ sifatlari, uslubshunoslik, G‘arb va Sharq notiqligi haqida fikr yuritiladi. Nutq madaniyati va notiqlik san‘atiga oid nazariy ma‘lumotlar amaliy mashg‘ulot, mustaqil ta‘lim soatlari uchun ajratilgan mavzular va ularga berilgan tavsiyalar bilan mustahkamlanadi. Shuningdek, notiq nutqining o‘ziga xos xususiyatlari haqida ham ma‘lumot beriladi.

O‘quv qo‘llanma oliy ta‘lim muassasalari o‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishidagi talabalar (60111400 - O‘zbek tili va adabiyoti) hamda barcha nutq madaniyati va notiqlik san‘ati bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

**Mas‘ul muharrir:**

**S. Muhamedova** – filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**J.Yoqubov** – filologiya fanlari doktori, professor

**A. Shofqorov** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9910-780-09-7

©.Rasulov R. va b., 2025  
©“Mhamroh media”, 2025

So‘z so‘zlashda va ulardan jumla

tuzishda uzoq andisha kerak.

Abdulla Qodiriy

## KIRISH

Ma‘lumki, har qanday davlat mustaqilligining belgilaridan biri uning davlat tiliga egaligidir. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va davlat tili haqidagi qonunning joriy etilishi mustaqilligimiz poydevoriga asos bo‘ldi. Istiqloq sharofati bilan o‘zbek tilining mavqeyi yuksaldi, uning ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amal qilinishiga katta imkoniyatlar yaratildi.

Mamlaktimizdagi barcha oliy o‘quv yurtlarida, malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida va boshqa ko‘pgina o‘quv muassasalarida “Nutq madaniyati”, “Nutq mahorati”, “Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish”, “Notiqlik san‘ati” “Nutq madaniyati va notiqlik san‘ati” fanlarining o‘quv rejalariga kiritilishi va o‘qitilishi ham jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma‘naviy kamolotining muhim belgisi bo‘lgan o‘zbek tiliga, nutq madaniyatiga alohida e‘tibordan dalolatdir.

Ta‘lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, ta‘lim muassasasi xodimlari tildan – uning vositalaridan, birliklaridan eng muvofiq‘ini tanlay va qo‘llay bilishi kerak. Chunki pedagogning umummadaniy saviyasining eng muhim, eng asosiy jihatlaridan biri uning nutq madaniyatini – madaniy nutqni qay darajada egallaganligida yaqqol ko‘rinadi. Buning uchun ular, albatta, o‘z ona tilini puxta bilishi, uning barcha imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olishi – namunali nutq so‘zloveli - notiq bo‘lishi zarur. Umuman, kasbidan qat‘iy nazar har bir mutaxassis til madaniyati, nutq madaniyati, notiqlik san‘atini mukammal

egallashlari ayni muddaodir. Zero, nutq madaniyati – inson ruhiy olamining, ichki dunyosining, bilim saviyasining obyektiv olamga (tabiat va jamiyatga) bo'lgan munosabatining, dunyoqarashining ko'zgusidir.

## NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN'ATI FANI HAQIDA

### Reja:

1. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati fanining maqsad va vazifalari.

2. Nutq madaniyati va notiqlik san'atining o'zaro farqli tomonlari.

3. G'arb va Sharq madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni va ahamiyati.

**Tayanch so'z va iboralar:** nutq, nutq madaniyati, notiqlik san'ati, adabiy til me'yorlari, nutq uslublari, adabiy til, nutqning asosiy sifatleri.

Nutq madaniyati va notiqlik san'ati og'zaki va yozma nutqni tinglovchi yoki o'quvchilarga aniq, ravon, ifodali, tushunarli va ta'sirli yetkazish malakasini egallashdir. Fanni o'qitishda tarix, falsafa, mantiq, psixologiya, pedagogik mahorat kabi fanlar bilan birga o'zbek tilshunosligining barcha bo'limlaridan egallagan bilimlarga asoslaniladi. O'z navbatida, bu o'quv fani stilistikani o'rganish uchun zamin hozirlaydi.

Nutq madaniyati va notiqlik san'ati fani notiqlik turlari va ko'rinishlari, notiqlik tarixi, voizlik, G'arb va Sharq madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni va ahamiyati, bugungi kunda notiqlik san'ati va nutq madaniyati muammolari kabi masalalarni qamrab oladi. U milliy til, adabiy til me'yorlarini, uning takomil topib borishini, undagi ba'zi leksik birliklarning eskirishi, iste'moldan chiqishi, ularning o'rnida boshqa yangi lisoniy birliklarning paydo bo'lishini va iste'molda faol qo'llanishini, leksik birliklarning o'rinli, o'rinsiz qo'llanishi, mantiqiy izchillik, fikr ifodalanayotgan vaziyat kabi lingvistik holatlarni kuzatib, tahlil qilib boradi. Lekin mazkur fan yangi

me'yorlarni yaratmaydi, ba'zi bir lingvistik hodisalarni tilga majburan kiritmaydi. Balki o'zbek milliy adabiy tilning qo'llanish holatini, uning rivojlanishini kuzatib boradi, obyektiv munosabatlarni tahlil etadi, shular asosida tavsiyalar beradi<sup>1</sup>.

Hozirgi o'zbek adabiy tili, adabiy til asosida vujudga keladigan barcha nutq turlari, adabiy tilga asos bo'luvchi xalq tili shevalari ham notiqlik san'ati obyektiga daxldordir. Notiqlik san'ati sohasi tarix, adabiyotshunoslik, etika, estetika, pedagogika, mantiq, psixologiya, siyosatshunoslik sohalari bilan ham bog'liq. Notiqlik va voizlik san'atiga oid asarlar, o'zbek madaniy nutqiga asos bo'lgan milliy adabiy meros namunalari, o'zbek milliy hujjatchiligi hamda davlat tilida ish yuritish qonun-qoidalarini majmuasi ham notiqlik san'ati fanining asosiy obyektlaridan biri hisoblanadi.

Nutq madaniyati va notiqlik san'ati fani o'z predmeti, tekshirish obyekti va vazifalariga ega. Uning predmeti nutqning lisoniy qurilishi, adabiy til me'yorlari va nutqning kommunikativ (aloqa uchun kerakli) sifatleri hamda mimika, gradatsiya, ovoz va nutq texnikasi sanaladi. Asosiy tekshirish obyekti adabiy til me'yorlari, vazifasi esa ushbu me'yordagi ikkilanishlarni bartaraf etish bo'lmog'i kerak.

Nutq madaniyati va notiqlik san'ati fani o'ziga xos amaliy soha sifatida shakllangan. Notiqlik san'ati – bu, asosan, nutqning og'zaki shakli. Nutq madaniyati esa, nutqning ham og'zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli tushunchadir. Notiqlik nutq vositasida kishilarga muayyan g'oya va maqsadlarni yetkazishni, ularni ma'lum maqsadda

<sup>1</sup> Qarang: Rasulov R., Mo'yidinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent, 2015; Kudratov T. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent, Uktuvchi, 1993, 15-16-betlar.

safarbar qilishni ko'zda tutadi. Shuning uchun notiq nutqi ko'pchilik tinglovchilarga, keng auditoriyaga mo'ljallangan bo'ladi. Notiqlik san'atida tinglovchilarni ma'lum maqsadga jalb qilish asosiy o'rin tutadi. Shu bois ko'proq nutqning mazmuniga, mantiqiy asoslariga va tuzilishiga e'tibor qaratadi. Shu bilan birga tilshunoslikning (faqat tilshunoslik bilan bog'liq tomonlari haqida so'z yuritimiz – R.R., Q.M) nazariy fanlaridan olingan bilimlarga suyangan holda to'g'ri, ta'sirli nutq tuzish yo'llarini o'rgatadi. U til, til me'yorlari, nutq, nutqning sifatleri, nutq uslublari, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan kamchilik va xatolar, nutq talaffuziga doir muammolar yuzasidan bahs yuritadi.

Keyingi paytlarda notiqlik san'ati va nutq madaniyatini ayni bir tushuncha deb biluvchilar ham yo'q emas. Bu ikki tushunchani ifodalovchi fanlar bir-biri bilan juda yaqin, ayni paytda biri ikkinchisini to'ldiruvchi, lekin boshqa-boshqa fanlar ekanligini ututmaslik lozim. Nutq madaniyati nutqning ham og'zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli tushuncha bo'lsa, notiqlik san'ati esa – bu, asosan, nutqning og'zaki shaklidir. Nutq madaniyatida eng avvalo, fikrning aniq, ravon, mantiqan to'g'ri, sof, ta'sirli va maqsadga muvofiq bo'lishi talab qilinadi. Notiqlik san'atida esa e'tiborni tortish, ta'sirchanlikni oshirish maqsadida ma'lum o'rinlarda dialektal, jargon so'zlarni ishlatilish holati kuzatiladi. Nutq madaniyatida bu holatga yo'l qo'yilmaydi. Notiqlik san'atida intonatsiya, gradatsiya, jest (qo'l, yuz harakatlari)ga ko'p e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga har ikkala soha ham tilshunoslik, falsafa, mantiq kabi fanlardan olingan nazariy bilimlarga suyangan holda to'g'ri, ta'sirli nutq tuzish yo'llarini o'rgatadi, har ikkisida ham fikr o'quvchi yoki tinglovchiga yetib borib, ma'lum ta'sir ko'rsatishini